

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2019 yil yanvar – iyun oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o'rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

2019 yil yanvar – iyun oylari uchun yalpi ichki (hududiy) mahsulot

	YaIM (YaHM)		Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)	
	mlrd. so'm	o'sish sur'atlari, %	ming so'm	o'sish sur'atlari, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	222 022,0	105,8	6 649,4	103,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 861,8	107,2	4 191,0	105,6
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	13 694,0	106,2	4 449,3	104,3


¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.

	YaIM (YaHM)		Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)	
	mlrd. so'm	o'sish sur'atlari, %	ming so'm	o'sish sur'atlari, %
Buxoro	11 513,6	104,6	6 057,6	102,9
Jizzax	5 824,9	105,5	4 286,5	103,3
Qashqadaryo	16 639,0	103,5	5 156,7	101,4
Navoiy	15 069,0	103,3	15 329,6	101,5
Namangan	9 322,0	105,6	3 371,8	103,5
Samarqand	15 383,6	105,6	4 031,3	103,4
Surxondaryo	10 101,3	103,5	3 911,9	101,2
Sirdaryo	4 535,9	104,5	5 442,6	102,6
Toshkent	22 410,7	107,1	7 707,1	105,7
Farg'ona	14 765,3	105,2	3 993,6	103,3
Xorazm	7 923,2	106,5	4 303,5	104,7
Toshkent sh.	31 935,3	107,2	12 651,6	105,1

2019 yil yanvar – iyun oylari yakunlari bo'yicha Toshkent shahri (107,2 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (107,2 %) hamda Toshkent (107,1 %), Xorazm (106,5 %) va Andijon (106,2%) viloyatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Respublika darajasiga (105,8 %) nisbatan past o'sish sur'atlari Navoiy (103,3 %), Surxondaryo (103,5 %) va Qashqadaryo (103,5 %) viloyatlarida kuzatildi.


Respublika bo'yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 14,4 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent viloyati 10,1 % va Qashqadaryo viloyati 7,5 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %), Jizzax (2,6 %), Xorazm (3,6 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,5 %) to'g'ri kelmoqda.

**2019 yil yanvar – iyun oylarida
YaIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki**
(YaIMga nisbatan % da)




2019 yil yanvar-iyun oylarida kichik biznesning Respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 54,0 % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Jizzax (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining 78,6 foizi), Surxondaryo (78,0 %) va Namangan (74,2 %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy viloyati (29,9 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (48,8 %) va Toshkent viloyatida (51,3 %) qayd etildi.

**2019 yil yanvar – iyun oylarida
kichik biznesning YaHMdagi ulushi
(Yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da)**




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar – iyun oylarida **Qoraqalpog'iston Respublikasi** YaHM hajmi joriy narxlarda 7 861,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi. YaHMning o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 105,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 16,8 %), sanoat – 100,5 % (33,2 %), qurilish – 144,6 % (11,9 %), xizmatlar sohasi – 106,1 % (38,1 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 191 ming so'mni tashkil etdi va 5,6 % ga o'sdi.



2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati


(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)



Andijon viloyatida YaHM hajmi 6,2 % ga o'sdi va 13 694,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Iqtisodiy o'sish qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 100,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 40,0 %), sanoatda - 117,8 % (23,0 %), qurilishda – 116,3 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 103,7 % (30,5 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari natijasida ta'minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 449 ming so'mni tashkil etdi va 4,3 % ga o'sdi.




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Buxoro viloyatida YaHM 4,6 % ga o'sdi va 11 513,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning tarmoq tarkibida o'sish sur'atlari: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 100,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 38,9 %), sanoatda – 105,4 % (20,9 %), qurilishda – 117,6 % (9,9 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % (30,3 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,9 % ga o'sdi va 6 058 ming so'mni tashkil etdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	8 836,1	11 513,6
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpt qo'shilgan qiymati	8 229,8	10 522,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 723,5	4 098,4
Sanoat	1 169,7	2 200,3
Qurilish	833,9	1 036,8
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	665,4	784,7
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	595,4	670,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 241,9	1 731,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	606,3	990,7




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Jizzax viloyatida YaHM 5,5 % ga o'sdi va 5 824,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 46,4 %), sanoatda – 105,0 % (12,4 %), qurilishda – 123,5 % (9,4 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % (31,8 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 4 287 ming so'mni tashkil etdi va 3,3 % ga o'sdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	4 575,0	5 824,9
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 421,2	5 514,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 219,3	2 559,2
Sanoat	460,5	683,1
Qurilish	384,4	516,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	349,7	418,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	233,0	250,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	774,3	1 085,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	153,8	310,9

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)



Qashqadaryo viloyati YaHM hajmi 16 639,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,5 % ni tashkil etdi. Iqtisodiyotning quyidagi asosiy tarmoqlarida ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida – 104,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi 34,0 %), qurilishda – 121,8 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % (27,0 %). Shuningdek, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 96,2 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 31,6 %). Aholi jon boshiga YaHM 1,4 % ga oshgan va 5 157 ming so'mni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-iyunida YaHM ning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Navoiy viloyati YaHM hajmi 15 069,0 mlrd. so'mga yetdi va o'sish 3,3 % ni tashkil etdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 14,8 %), sanoatda – 100,8 % (66,6 %), qurilishda – 129,8 % (5,0 %), xizmatlar sohasida – 104,2 % ni (13,6 %) tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1,5 % ga o'sdi va 15 330 ming so'mni tashkil etdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	9 647,4	15 069,0
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9 287,1	14 521,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 829,3	2 146,3
Sanoat	5 427,4	9 665,5
Qurilish	452,8	720,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	437,3	504,6
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	301,2	326,2
Boshqa xizmat tarmoqlari	839,1	1 158,2
Mahsulotlarga sof solliqlar	360,3	547,7


2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunda YaHMning o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Namangan viloyatida YaHM 9 322,0 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning yanvar – iyun oylari ma'lumotlariga nisbatan 5,6 % ga ko'pdir. YaHMning o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,1 %), sanoatda – 109,2 % (15,1 %), qurilishda – 121,1 % (6,7 %) va xizmatlar sohasida – 104,3 % (39,1 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Aholi jon boshiga YaHM 3,5 % ga o'sdi va 3 372 ming so'mni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati


(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Samarqand viloyatida YaHM hajmi 15 383,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati 5,6 % ga yetdi. Ushbu hududda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,8 %), sanoatda – 109,1 % (17,1 %), qurilishda – 119,4% (7,0%), xizmatlar sohasida – 104,4 % (36,1 %) ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Aholi jon boshiga YaHM 3,4 % ga o'sdi va 4 031 ming so'mni tashkil etdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	12 345,2	15 383,6
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qlymatl	12 098,7	14 895,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 008,2	5 932,1
Sanoat	2 083,3	2 544,5
Qurilish	810,6	1 044,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	892,3	1 069,3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	978,1	1 087,9
Boshqa xizmat tarmoqlari	2 326,2	3 217,4
Mahsulotlarga sof solliqlar	246,5	487,9

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Surxondaryo viloyatida YaHM 3,5 % ga o'sdi va 10 101,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 100,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 51,4 %), sanoatda – 103,0 % (6,8 %), qurilishda – 124,1 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 104,0 % (32,8 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari xizmat qildi. Aholi jon boshiga YaHM 3 912 ming so'mni tashkil etdi va 1,2 % ga o'sdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	8 334,4	10 101,3
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 116,9	9 666,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 491,3	4 972,2
Sanoat	510,8	653,8
Qurilish	623,3	866,8
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	732,2	849,8
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	396,3	433,7
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 363,0	1 890,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	217,5	434,9

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Sirdaryo viloyatida YaHM 4,5 % ga o'sdi va 4 535,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Xususan, o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 101,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 37,2 %), sanoatda 101,1 % (27,7 %), qurilishda 125,3 % (7,6 %), xizmatlar sohasida 106,1 % (27,5%) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 5 443 ming so'mni tashkil etdi va 2,6 % ga o'sdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	3 301,4	4 535,9
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qlymati	3 106,7	4 113,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 276,8	1 529,9
Sanoat	755,6	1 140,4
Qurilish	203,5	312,3
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	188,2	231,4
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	157,4	169,9
Boshqa xizmat tarmoqlari	525,2	729,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	194,7	422,5




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)




Toshkent viloyatida YaHM 7,1 % ga o'sdi va 22 410,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Jumladan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 101,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 23,0 %), sanoatda – 110,1 % (48,8 %), qurilishda – 133,3 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 104,0 % (24,2 %) ijobiy o'sish sur'atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 5,7 % ga o'sdi va 7 707 ming so'mni tashkil etdi.

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd. so'm	16 707,0	22 410,7
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qlymatl	15 662,0	20 723,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 232,6	4 775,7
sanoat	6 919,6	10 112,1
qurilish	519,5	823,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 128,4	1 333,1
tashish va saqlash, axborot, axborot va aloqa	951,2	1 075,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 910,7	2 603,1
Mahsulotlarga sof solliqlar	1 045,0	1 687,7

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)



Farg'ona viloyatida YaHM 5,2 % ga o'sdi va 14 765,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 31,5 %), sanoatda – 106,8 % (26,1 %), qurilishda – 120,8 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % (35,9 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 3 994 ming so'mni tashkil etdi va 3,3 % ga o'sdi.


	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	11 087,3	14 765,3
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 596,4	13 871,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 854,3	4 364,1
Sanoat	2 218,9	3 618,8
Qurilish	636,1	900,1
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	888,6	1 063,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	792,2	879,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	2 206,3	3 045,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	490,9	893,7

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati


(2018 yil yanvar-martga nisbatan foizda)



Xorazm viloyatida YaHM 7 923,2 mlrd. so'mga yetdi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga ko'pdir. YaHMning o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 40,4 %), sanoatda – 110,8 % (17,0 %), qurilishda – 114,8 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 105,7 % (34,7 %) kuzatilgan o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4,7 % ga o'sdi va 4 304 ming so'mni tashkil etdi.


	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
YaHM, mlrd.so'm	6 145,6	7 923,2
shu jumladan:		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 933,1	7 536,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 600,7	3 041,4
Sanoat	853,9	1 280,0
Qurilish	457,7	593,4
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	376,1	462,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	452,2	494,1
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 192,5	1 664,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	212,5	387,0

2019 yil yanvar-iyunida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)



Toshkent shahrida YaHM 7,2 % ga o'sdi va 31 935,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHM o'sishining asosiy omillari bo'lib, sanoat – 103,1% (YaHM tarkibidagi ulushi – 33,4 %), qurilish – 129,7 % (12,0 %), xizmatlar sohasidagi – 105,6 % (54,6 %) ijobiy o'sish sur'atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5,1 % ga o'sdi va 12 652 ming so'mga yetdi.



2019 yil yanvar-iyunida YaHMning o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda)

